



FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 30-iyul

177-11-163-Q/25

Farg'ona tumani hokimligi

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 12-fevraldagi
83-sonli qarori asosida qabul qilingan viloyat hokimining 2025-yil 15-mart kungi
157-11-0-Q-25-sonli qarori to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida PQ-330-sonli qarorining ijrosini ta'minlash, shuningdek, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini yanada kengaytirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 12-fevraldagi 83-sonli qarori asosida qabul qilingan viloyat hokimining 2025-yil 15-mart kungi 157-11-0-Q-25-sonli qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 12-fevraldagi "2025-2026-yillarda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 83-sonli qarori asosida qabul qilingan viloyat hokimining 2025-yil 15-mart kungi 157-11-0-Q-25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Farg'ona tumanida 2025-2026-yillarda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga muvofiq;

Farg'ona tumanida 2025-2026-yillarda 3-7 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishning maqsadli ko'rsatkichi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Jahon bankining "Bolalarning erta yoshdan rivojlanishiga ko'maklashish" loyihasi doirasida davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'yin maydonchalari va tayyorlov guruhlarini stol-stullar bilan jihozlash bo'yicha Farg'ona viloyati ko'rsatkichi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining o‘rnbosarlari O.Abduraximov, I.Toshpo‘latov, Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (Sh.Yuldashev), O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi (D.Xomidov)larga:

aholining yashash darajasi va to‘lov qobiliyati yuqori bo‘lgan (kambag‘al oilalar kam bo‘lgan) mahallalarda davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish va chekka (tuman markazida joylashmagan) mahallalarda oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish;

aholining to‘lov qobiliyati past (kambag‘al oilalar nisbatan ko‘p bo‘lgan) hamda demografik o‘sish darajasi yuqori bo‘lgan mahallalarda davlat, shuningdek, xalqaro moliya institutlari kredit va grantlari hisobidan davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish;

ijtimoiy soha muassasalarining bo‘sh binolarida qisqa muddatli guruhlar tashkil etish vazifalari topshirilsin.

4. Tuman hokimining o‘rnbosari I.Toshpo‘latov, Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (Sh.Yuldashev) bilan birgalikda 2025-yil yakuniga qadar kambag‘al oilalar farzandlarini maktabgacha ta’lim bilan qamrab olishni ta’milasın.

5. Tuman hokimligi Matbuot xizmati (A.Ergashev), Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi hamda ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini oshirish borasida tumanda amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilib borish tuman hokimining o‘rnbosari I.Toshpo‘latov hamda Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i (Sh.Yuldashev) zimmasiga yuklansin.

Farg‘ona tuman hokimi



Inomov X.T

Farg‘ona tumani hokimining
2025-yil 30-iyuldagি
177-11-163-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**Farg‘ona tumanida 2025,2026-yillarda bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini
oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar**

DASTURI

Nº	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Amalga oshirish muddati	Moliavyiy manbasi	Mas’ullar
1.	Bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini 84 foizga yetkazish	<p>1. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi hamda boshqa davlat dasturlari doirasida yangi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini qurish, mavjud ta’mirtalablarini rekonstruksiya qilish.</p> <p>Bunda, 2-DMTTning bo‘sh turgan binosiga 30 o‘rinli guruh ochish, 28-DMTTning bo‘sh turgan binosiga 60 o‘rinli guruh</p>	2025-yil yakuniga yillar har yili sentabr	Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi mablag‘lar doirasida	Tuman hokimining o‘rinbosari I.Toshpo‘latov Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (Sh.Yuldashev), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Yusupov), Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (X.Mirzayev)

	<p>ochish, 37-DMTTning bo‘sh turgan binosiga 30 o‘rinli guruh ochish hisobiga jami 120 o‘rin yangi quvvat yaratiladi.</p> <p>2. Yangi 100 o‘rnli 1 ta DXSH, 100 o‘rinli bitta xususiy NMTT va 5 ta oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim muassalari tashkil etish orqali.</p> <p>Bunda, maktabgacha ta’lim tashkilotlari mavjud bo‘limgan mahallalar.</p> <p>Chekka va olis mahallalarda oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari.</p>			
2.	<p>6 yoshli bolalarni matabga tayyorlov guruhlari bilan to‘liq qamrab olish.</p> <p>1. 6 yoshli bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olishni ta’minlash bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish ishlarini davom ettirish.</p> <p>Bunda: qisqa muddatli va to‘liq kunlik tayyorlov guruhlarini;</p>	2025, 2026	Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi mablag‘lar doirasida	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (Sh.Yuldashev)

		<p>to‘liq koyeffisiyentda ishlamayotgan umumiy o‘rtat a’lim maktablarining bo‘sh xonalarida bir yillik majburiy tayyorlov guruhlari faoliyatini davom ettiriladi.</p> <p>2. Maktabgacha ta’limning muqobil shakllarini joriy etish.</p>		
3.	Aholining yashash darajasi va to‘lov qobiliyati yuqori bo‘lgan (kambag‘al oilalar kam bo‘lgan) mahallalarda davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish	<p>1. Mahalliy hokimliklar tomonidan aholining yashash darajasi va to‘lov qobiliyati yuqori bo‘lgan mahallalarni tanlab olish va ularning ro‘yxatini shakllantirish.</p> <p>2. O‘z mablag‘lari hisobidan davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish istagini bildirgan tashabbuskor tadbirkorlarni aniqlash.</p> <p>3. Tadbirkorlar tomonidan “Maktabgacha ta’limni boshqarish” axborot tizimida davlat-xususiy sheriklik</p>	<p>2025, 2026- yillar davomida har yili yanvar Doimiy</p>	<p>Alohida hisob-kitob asosida</p> <p>Tuman hokiminining o‘rinbosari I.Toshpo‘latov, Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (Sh.Yuldashev), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Yusupov)</p>

		asosida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish uchun taqdim etilgan elektron arizalar asosida davlat xususiy sheriklik bitimlarini tuzish			
4.	Aholining to'lov qobiliyati past (kambag'al oilalar nisbatan ko'p bo'lgan) va demografik o'sish darajasi yuqori bo'lgan mahallalarda davlat, shuningdek, xalqaro moliya institutlari kredit va grantlari hisobidan davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish.	<p>1. Aholining to'lov qobiliyati past bo'lgan va demografik o'sish darajasi yuqori bo'lgan mahallalar reyestrini shakllantirish.</p> <p>2. Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil etish tashabbusini bildirgan tadbirkorlik subyektlarini aniqlash.</p> <p>3. Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil etish uchun resurs ta'minotini belgilash.</p> <p>4. Resurs mablag'lari shakllangandan so'ng belgilangan tartibda davlat</p>	2025,2026-yillar	Xalqaro moliya institutlari mablag'lari doirasida	Tuman hokimining o'rinnbosari I.Toshpo'latov, Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (Sh.Yuldashev), Iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Yusupov)

		<p>va xususiy sherik o‘rtasida bitim imzolash.</p> <p>5. Davlat-xususiy sheriklik asosidagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirish chorasini ko‘rish.</p>		
5.	Bo‘sh turgan ijtimoiy soha muassasalarining binolarida qisqa muddatli guruhlarni tashkil etish.	<p>1. Bo‘sh turgan ijtimoiy soha obyektlari va ulardagi bo‘sh turgan xonalarning holatini aniqlash.</p> <p>2. Bo‘sh turgan obyektlar joylashgan mahallalardagi maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinmagan bolalar ro‘yxatini shakllantirish.</p> <p>3. Bo‘sh turgan xonalarni ta’mirlash va bolalarning yosh xususiyatini inobatga olgan holda jihozlash.</p> <p>4. Qisqa muddatli guruhlar faoliyatini yuritish uchun malakali pedagoglarni ishga jalg qilish va ularning faoliyatini moliyalashtirish.</p> <p>5. Qisqa muddatli guruhlarga bolalarni qamrab olish</p>	2025,2026-yillar	Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga ajratilgan mablag‘lar doirasida Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (Sh.Yuldashev), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Yusupov)

Farg‘ona tumani hokimining
2025-yil 30-iyuldagি
177-11-163-Q/25-son qaroriga
2-ilova

**Farg‘ona tumanida 2025-2026-yillarda 3-7 yoshli bolalarni maktabgacha
ta’lim bilan qamrab olishning
MAQSADLI KO‘RSATKICHI**

T/r	Hudud nomi	Maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinadigan bolalar soni	
		2025-yil	2026-yil
1.	Farg‘ona tumani	15 952	17 554